



PRAGMATIK INTERFERENSIYA: TAHLIL VA TAVSIYALAR

Sattorova Feruza Elmurodovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

Katta o'qituvchi, PhD, doktorant

Annotatsiya: *interferensiya hodisasi kommunikatsiya jarayonida ko'plab tushunmovchiliklarga sabab bo'lyapti, jumladan, pragmatik interferensiya hodisasi muloqot jarayonidagi ma'lum bir vaziyatda nutq aktlarini to'g'ri tanlay olmaslik yoki o'rganilayotgan til madaniyatiga oid bilimning yetarli emasligi kabi fikrlar olg'a suriladi. Shuning uchun, ushbu maqolada tillararo interferensiya hodisasi, bunga sabab bo'luvchi omillar va interferensiyani bartaraf etish bo'yicha ham adabiyotar tahlili ko'rib chiqildi.*

Kalit so'zlar: *interferensiya, salbiy ko'chim, ijobiy ko'chim, sotsiopragmatik interferensiya, pragmatik interferensiya, lingvometodik vazifalar.*

PRAGMATIC INTERFERENCE: ANALYSIS AND RECOMMENDATIONS

Sattorova Feruza Elmurodovna

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Senior teacher, PhD, doctoral student

Abstract: *the phenomenon of interference causes many misunderstandings in the process of communication, including the phenomenon of pragmatic interference, such as the inability to choose the right speech acts in a certain situation in the communication process, or insufficient knowledge of the culture of the target language. Therefore, this article is devoted to the study of the phenomenon of interlanguage interference, the factors causing it, and the literary analysis of interference elimination.*

Key words: *interference, negative transfer, positive transfer, sociopragmatic interference, pragmatic interference, linguomethodical tasks.*

**ПРАГМАТИЧЕСКОЕ ВМЕШАТЕЛЬСТВО: АНАЛИЗ И
РЕКОМЕНДАЦИИ**

Сатторова Феруза Элмуродовна

Самаркандский государственный институт иностранных языков
Старший преподаватель, кандидат технических наук, докторант

Аннотация: *явление интерференции вызывает множество недоразумений в процессе общения, в том числе такое явление прагматической интерференции, как неумение правильно выбирать речевые действия в определенной ситуации процесса общения или недостаточное знание культуры изучаемого языка. Поэтому данная статья посвящена изучению явления межъязыковой интерференции, факторов, вызывающих ее, и литературному анализу устранения интерференции.*

Ключевые слова: *интерференция, негативный перенос, позитивный перенос, социопрагматическая интерференция, прагматическая интерференция, лингвометодические задачи.*

Ingliz tili muloqotini qanday qilib samarali olib borilishi eng ko'p tadqiq etilgan bo'lishiga qaramay, bu tilda ona tili sifatida dunyo aholisining faqatgina 7 foizi so'zlashadi. Ingliz tili muloqotining katta qismi ona tili boshqa tillar bo'lgan so'zlovchilar tomonidan amalga oshiriladi. Natijada, til ta'limini haqiqiy ingliz tili so'zlashuvchilari bilan ta'minlash mushkul hisoblangan O'zbekiston kontekstida ingliz tilida "tabiiy", til egalari kabi muloqot kompetensiyasini egallash dolzarb bo'lib tuyuladi. Bu mulohaza ona tilisi ingliz tili bo'lmagan o'zbek o'qituvchilari

uchun ingliz tilini o'qitish va o'rgatish bo'yicha tajribalarini qayta ko'rib chiqish uchun muhim talab bo'lib xizmat qiladi. Til o'rganuvchilar haqiqiy ingliz tili so'zlovchisidek muloqot olib borishni xohlashsa, shu tildagi ijtimoiy muloqot me'yorlarini o'zlashtirishlari talab etiladi. Bizga ma'lumki har bir til o'ziga xos til me'yorlariga ega, hamma o'z tilidagi me'yorlardan foydalanishga moyil. Shu tufayli ingliz tili pragmatikasidagi interferensiya sabablarini tadqiq qilish dolzarblashib bormoqda.

Tillararo pragmatikani boshqa tillar orasidagi munosbatlarni o'rganadigan fanlar bilan qiyoslasak, bu sohada qanday qilib ikkinchi chet tilini egallash va shu tilda faoliyat olib borishni tushunish, qanday qilib boshqa bir tildagi pragmatik qobiliyatni egallash kabi jarayonlar yuzasidan ko'zga ko'rinadigan ishlar deyarli mavjud emas. Buning tarixiy va tizimiy sabablari mavjud. Tarixiy sababi pragmatika o'tgan asrning 70-yillarida shakllangan bo'lsa ham, pragmatikani o'qitish bo'yicha lingvodidaktik tadqiqotlar o'tgan asr oxirida sekin rivojlana boshladi. Tizimiy sababi sifatida pragmatikani ma'lum bir tilda qo'llanilishi haqida ko'plab ishlar qilingan bo'lsa ham, uning qanday shakllanishi va rivojlanishi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar ko'lami yetarli emas, deb belgilash mumkin. Tilararo pragmatika o'qitish borasida qilingan ishlardagi nazariy bilimlar, tadqiqot savollari va metodlari madaniyatlararo uchraydigan tajriba asosida shakllangan. Odatiy muammolar so'rovnomasida mahalliy so'zlovchilarning nomahalliy so'zlovchilardan 1) imkoniyat doirasi, 2) kontekstda ma'lum illokutiv va 3) hurmat ma'nosini ifodalash uchun qo'llaniladigan 4)strategiya va 5)lisoniy shakllardagi farqni aniqlashga qaratilgan qiyosiy tadqiqotlardan iborat.[4:207] Bunday muammolardan yana biri bu tilararo pragmatikada uchraydigan

SJIF:5.219

interferensiya hodisasidir. Chet tilini egallashda pragmatikaning oʻrni oʻrganila boshlangandan beri chet tili oʻrganuvchilari pragmatik bilimni shakllantirishda interferensiya hodisasini anglab yetish muhim ahamiyat kasb etdi. Interferensiya yuzasidan qilingan tadqiqotlar asosan bu hodisa sodir boʻlishi oʻrni, qanday sharoitlarda sodir boʻlishi va bu hodisaning boshqa tizimli va tizimsiz omillar bilan munosabatiga bagʻishlangan. Chunki pragmatik interferensiya kundalik hayotda fonologik, soʻz tartibi kabi lingvistik interferensiyalardan koʻra koʻproq sodir boʻladi.


T.Odlin interferensiya hodisasiga quyidagicha taʼrif beradi “Interferensiya ikki turli tildagi hodisalar oʻrtasidagi oʻxshashliklar va farqlar natijasida vujudga keladigan bir tilning ikkinchi tilga taʼsiridir” [8:195], boshqa bir tilshunos N.Vulfson fikricha esa “Soʻzlovchining oʻz ona tilidagi nutq qoidalarini boshqa bir mezbon jamoa aʼzolari bilan soʻzlashuv davomida qoʻllashi sotsiopragmatik yoki pragmatik interferensiyadir”. [10:119] Bunda olim pragmatik va sotsiopragmatik tushunchalarni oʻzaro erkin alamashadigan tushunchalar sifatida qoʻllagan. Ammo, fikrimizcha sotsiopragmatik va pragmatik interferensiyalar turli maʼnolarga ega. Zeroki, N.Vulfson taklif etganidek pragmatik interferensiya maʼlum bir kontekstda turli xil nutq aktlaridan foydalanishni taqozo etsa, sotsiolingvistik interferensiya esa turli tillardagi madaniyatlararo farqlar tufayli yuzaga keladi. Shu oʻrinda taʼkidlash lozimki, interferensiya hodisasida tilning sotsiolingvistik, pragmatik yoki diskurs sohasiga tegishli boʻlgan unsurlarning chegarasini belgilab olish muhim sanaladi. Maʼlumki, har bir til oʻzining gapirilish qoidalariga ega va bu qoidalarning ikkinchi bir tilga yo ijobiy yo salbiy taʼsirini interferensiya hodisasi deb tadqiq etarkanmiz, bu qoidalar nutq aktlari bilan

aloqador bo'lsa – pragmatik interferensiyani, turli ijtimoiy strategiyalar bilan bog'liq bo'lsa – sotsiolingvistik interferensiyani, salomlashish va nutq paytida navbat alamashish (turn-taking)da namoyon bo'lsa diskurs interferensiyani taqozo etadi. Ammo yuqoridagi chegaralardagi turli interferensiyalar ma'lum kontekstni taqozo etar ekan, masalan, ularni pragmatik interferensiya hodisasiga bog'lab o'rganish behuda muhokamalar oldini oladi, chunonchi, yuqoridagi uch turli sohalaridagi interferensiya muloqot natijasi o'laroq sezilar ekan, boshqacha aytganda, illokutiv maqsadni nutq davomida anglash ham pragmatik bilim orqali vujudga keladi.

Yuqorida biz tilning turli qatlamlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy ko'chirilishlar, ya'ni interferensiya haqida turli ma'lumotlarni tahlil qilib, bu hodisani o'rganishdan maqsad muloqotda vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli anglashilmovchiliklarni bartaraf etish yo'llarini izlashdir. Interferensiya hodisasi faqat lisoniy qatlamlarda emas, balki biz so'z yuritayotgan pragmatikada ham tez-tez uchrab turadi. Pragmatik interferensiyaning oldini olish uchun o'rganuvchining ingliz tilini bilish darajasini oshirish, uning ingliz tili so'zlashiladigan muhitda bo'lishiga imkoniyat yaratish yoki ingliz tilini qo'llay olish ishonchini mustahkamlash orqali bartaraf etish mumkin. Ingliz tili muloqotida pragmatik interferensiya, ya'ni ona tilining ta'sirida ingliz tiliga salbiy ko'chirish manbayi, avvalambor, turli til vakillarining turli madaniyatlarga egaligidadir. Shuningdek, bunday pragmatik muvaffaqiyatsizlikka so'lovchining ona tilidagi madaniyati va ona tilining ikkinchi tilga ta'siri yoki uning chet tilini bilish darajasining pastligi sabab bo'lishi mumkin. Masalan, turli tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, biror bir taklifni rad etish uchun haqiqiy ingliz *"I would love, but..."* deb rad etishning



“yumshoq yo‘li”ni tanlasa, ingliz tilini chet tili sifatida qo‘llovchi ko‘plab insonlar oddiyroq va to‘g‘ridan to‘g‘ri *“Sorry I have other plans for that day”* deya javob berishni ma’qul ko‘rishadi. Bunga sabab ularning ochiqdan ochiq rad etish me’yoriy hisoblangan jamiyatda voyaga yetganliklari ehtimoldan holi emas. Ikkinchidan, chet tilida so‘zlovchida bunday diskursiv koeziyadan - *“I would love to...”* dan foydalanish ko‘nikmasi shakllanmaganligi bo‘lishi mumkin. Uchinchidan, so‘zlovchining ona tilida bunday qurilmaning mavjud emasligi ham pragmatik nomutanosiblikka yetaklashi mumkin. Bu jarayonni quyidagi jadvalda ravshanroq ifodalash mumkin:



1.-rasm. Pragmatik interferensiyaga olib borishi mumkin bo‘lgan omillar.

A.A. Leontev e birinchi va ikkinchi chet tilini o‘zlashtirishdagi xususiyatlarni quyidagicha izohlaydi: Ikkinchi chet tilini o‘rganishni boshlagan odam yoshga qarab turli xil psixologik xususiyatga ega. Ikki tilli oilalar uchun birinchi til bilan ikkinchi tilni o‘zlashtirish parallel sodir bo‘ladi. Ikkinchi chet tili maktabgacha yoshda o‘rganishni boshlash ham samarali bo‘ladi, bola bu davrda hech qanday fonetik va grammatik qoidalarsiz ikkinchi tilni to‘g‘ridan – to‘g‘ri egallashni boshlaydi. Chet tilini birinchi til uchun umumiy bo‘lgan malakalar asosida o‘rganishni boshlaydi. Ona tilini o‘rganish kichik mexanizmdan ya’ni pastdan yuqoriga tomon o‘rganib nutqning barqarorligiga erishiladi. Chet tilini o‘rganish esa ixtiyoriy til birliklarini yuqoridan pastga tomon tanlov asosida o‘rganish yuzaga keladi. Ko‘pincha chet tili ta’limida bu mexanizm e’tibordan chetda qoladi”[11:128]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, siz tillararo interferensiya turlarini aniqlashda faqat bu hodisaning manbasi va ta’sir doirasi bilan qoniqmaysiz. Bu yerda tilda sodir bo‘ladigan buzilishning tabiatini hal qilishda ikki tilli kishining roli muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko‘rinishda “yuqori darajada farqlanuvchi” tillararo interferensiya , “farqlar” (deffirensiatsiya) va “farqlarni qayta talqin qilish” kabi uch turdagi interferensiyani ajratish mumkin. Differensiatsiya atamasi bu chet tilidagi xususiyat ona tilida yo‘qligi yoki aksincha holatni anglatadi. Farqlarni qayta talqin qilish esa ma’lum tildagi farqlanuvchi xususiyatini ona tilidagi yoki chet tilidagi o‘rindoshi bilan almashtirishni anglatadi. Bunday interferensiyalar tilning turli sathlarda uchragan hodisalar bo‘lsa-da, bunday interferensiyalar ko‘proq pragmatik muammolar ildizi deb hisoblaymiz. Zero, pragmatik adabiyotlar tahlili, hozirgi davrda grammatik salbiy transformalardan ko‘ra pragmatik muvaffaqiyatsizliklar kommunikatsiyada to‘siqlarga ko‘proq

sabab bo'lyapti. Bundan tashqari, "konseptual tizimdagi nomutanosiblik til sohiblarining hayot tajribasidagi farqlar bilan bog'liq"[14:216] degan mulohazalar ham tillararo interferensiyaga va suhbatdoshlarning o'zaro bir-birlarini tushunish faoliyatiga ham salbiy ta'sir etishi mumkinligini e'tirof etmaslikning iloji yo'q.

Xullas, chet tili va ona tilini qiyoslash yo'li bilan muayyan lingvometodik vazifalar hal qilinadi. Natijada ta'lim samaradorligini ta'minlaydigan quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- 1.O'quv materiallari o'zlashtirishga tayyorlanadi.
- 2.O'zlashtirishda lisoniy qiyinchiliklarga sabab bo'ladigan va interferensiyani keltirib chiqaradigan tafovutlar ochib beriladi.
- 3.Interferensiya oqibati bo'lmish o'quvchilar nutqida kutiladigan xatolar belgilab olinadi.
- 4.Ona tili va chet tilining o'xshash hodisalari topiladi.
- 5.Interferensiyaning oldini olish usullari va o'xshash lisoniy hodisalarga tayanib ish ko'rish yo'llari izlanadi.
- 6.Til materialini berish tartibi, tushuntirish mazmuni va usullari, qoidalarning ta'rifi hamda lisoniy mashqlar bajarishdagi ketma-ketlik kabilar aniqlanadi. [11:34]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Firth. J. R. (1951). Papers in Linguistics, Oxford University Press, 1951. P. 154.
2. G. Charless Walter. Contextual correlates of meaning. Applied psycholinguistics, 2000. 21 (04) 505.



3. Guy Cook. Discourse and Literature. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 1999. P.24.
4. Kasper Gabriele. Pragmatik transfer // Second Language Research, Volume 8(3), 2001. – P. 207.
5. Kenneth R.Rose, Gabriele K. Pragmatics in language teaching. – Cambridge.: Cambridge University Press., 2001. – P.19.
6. Lawrence F.Bouton . Pragmatics and language learning // – Monograph Series Volume 7, University of Illinois, 1996. – P.13. 3.
7. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi: (Sintaksis) – T.: O‘qituvchi, 1995. - B.10.
8. Odlin T. Language transfer. - Cambridge.: Cambridge University Press, 1989. – P.195.
9. Safarov Sh. Tilshunoslik terminlari lug‘ati”Lug‘at”. – T.:“Lesson press”, 2023. – B. 218.
10. Wolfson N. (1981).Compliments in cross-cultural perspective // TESOLQuarterly, Volume 15, 1981. – P. 119.
11. Petrovskaya JI.A. Teoreticheskie i metodologicheskie problemy sotsialno-psixologicheskogo treninga. M.: MGU, 1982. –S.128.
12. Sattorov T. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: TDYuI, 2003. – B. 38.
13. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B. 37
14. Safarov Shaxriyor. Til nazariyasi va lingvometodologiyasi: monografiya. – T.:BAYOZ, 2015. – B.216.